

# JINOIY UYUSHMALAR TASHKIL ETISHNING OLDINI OLİSH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

*Toshtemirov Ruslan Xolli o‘g‘li  
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti*

## **Annotatsiya**

Jinoiy uyushmalar jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladigan muammolardan biridir. Ularning tashkil etilishi, nafaqat jinoyatchilikni kengaytiradi, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ham buzadi. Ushbu maqola jinoiy uyushmalarni tashkil etishning oldini olish bo'yicha mavjud profilaktika tizimlari va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Maqlada, jinoiy uyushmalarni tashkil etishning oldini olishda davlat va jamoat sektori o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, profilaktika strategiyalari va ma'lumot almashishning samaradorligi tahlil qilinadi. Jinoiy guruhlar bilan samarali kurashish uchun zamonaviy yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish, profilaktik faoliyatni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

## **Abstract**

Criminal organizations are one of the problems that seriously threaten the security of society. Their organization not only increases crime, but also disrupts social, economic and political stability. This article examines the existing preventive systems for preventing the formation of criminal organizations and the possibilities of their improvement. The article analyzes the importance of cooperation between the state and the public sector, preventive strategies and the effectiveness of information sharing in preventing the formation of criminal organizations. It is emphasized that it is necessary to develop modern approaches and methods, to strengthen preventive activities in order to fight effectively with criminal groups

### **Kalit so'zlar:**

- Jinoiy uyushmalar
- Jinoyatchilikni oldini olish
- Profilaktika
- Huquqni muhofaza qilish organlari
- Jamoatchilik nazorati
- Ijtimoiy integratsiya
- Ma'lumot almashish
- Hamkorlik
- Davlat xavfsizligi

Uyushgan jinoyatchilikning nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miyosida ijtimoiy-huquqiy, xususan, siyosiy tadqiqot obyektiga aylanganligining o‘ziyoq bu

muammoning naqadar dolzarbligini ko'rsatadi. Uyushgan jinoyatchilikning oldini olish borasidagi profilaktika faoliyati kriminologiya fanining ilmiy tavsiya va prognozlariga tayanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu ijtimoiy-kriminologik hodisaning dolzarbligi, birinchi navbatda, uning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy xavflilikning favqulodda darajasi, jinoyatga qasd bilan uyushganlikning mavjudligi va uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmalar manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan jinoyatlarning aksariyat hollarda ochilmay, latent bo'lib qolishi yoxud yuqori mansabdor shaxslarning aralashuvi bilan jinoyatning yashirilishi orqali xarakterlanadi. Shu bois mamlakatimizda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning faol mexanizmlarini yaratish borasida chuqr o'yangan strategik chora-tadbirlar amalga tatbiq qilingan. Jumladan, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning milliy va xalqaro huquqiy asoslari yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasi 4-bandida "uyushgan guruh" tushunchasiga aniq ta'rif berib o'tilgan: "Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi". Shu bilan birga, ushbu moddaning 4-bandida ta'kidlangan jinoiy uyushmalarni tuzishning o'ziyoq jinoiy javobgarlikka tortishga to'liq asos bo'ladi hamda uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan har qanday jinoyat o'ta og'ir turdag'i jinoyatlar sifatida e'tirof etiladi. Hukumatimiz tomonidan 2003-yil 30-avgustda BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (Palermo konvensiyasi) ratifikatsiya qilindi. Bu esa uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro tan olingan huquqiy assosi edi. Unga ko'ra, uyushgan jinoiy guruh "ma'lum bir vaqt davomida mavjud bo'lgan va bir yoki bir nechta og'ir jinoyatlarni yoxud ushbu konvensiyaga muvofiq deb topilgan jinoyatlarni sodir etish maqsadida birgalikda harakat qiladigan uch yoki undan ortiq shaxslardan iborat bevosita yoki bilvosita, moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaatdorlik asosida tuzilgan guruh" deya ta'riflangan.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib jinoyat sodir etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun katta yangilik emas. Biroq uyushgan guruh va jinoiy uyushmalar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar xarakteri jihatdan oddiy yoki murakkab ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga ko'proq zarar yetkazadi. Jinoiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining keskin ortishi, jamiyat uchun tobora xavfli bo'lib bormoqda. Bu xavf quyidagi holatlar tufayli yuzaga keladi: – bir necha shaxslarning sa'y-harakatlarini birlashtirish orqali jinoyat sodir etiladi va shaxsga, jamiyatga, davlatga ko'proq zarar keltiradi; – hech shubhasiz, bunday jinoyatlarni ochish qiyinroq; – ko'p sonli shaxslar jinoyatga daxldor, shu jumladan, voyaga yetmaganlar ham. Uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish,

fosh etish va tergov qilishni yanada samaraliroq tashkil qilish bo'yicha amaliy-huquqiy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Kriminologik tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, umumiy jinoyatlarning 1/3 qismi uyushgan guruh va jinoiy uyushmalar hissasiga to'g'ri keladi hamda ko'payish tendensiyasiga ega. Uyushgan guruh jinoyatlarining eng xavfli jihat shundaki, sodir etilgan jinoyatlar hayotning kundalik hodisasiga hamda jamiyatni tashkil etishning eng keng tarqalgan shakllaridan biriga aylanib, iqtisodiyot sohasiga kirib, davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Jinoyat qonunchiliga binoan, jinoiy uyushmalar yoxud uning bo'linmalarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat jinoiy faoliyat deb e'tirof etilgan. Ushbu norma jinoiy spesifikasiga ko'ra, uyushgan qurolli guruh tuzish va unga rahbarlik qilish yoki unda ishtirok etish ham jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Mamlakatimizda aynan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va shu maqsadda davlat boshqaruva organlari tizimida maxsus organlar hamda xizmat sohalari tuzishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Ichki ishlar vazirligi, prokuratura organlari va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tizimida uyushgan jinoyatchilik hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'lim va bo'linmalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, bu organlarga nafaqat jamoat tartibini ta'minlashda, balki uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xavfsizlik xizmati va Davlat xavfsizlik xizmati, bundan tashqari, Adliya vazirligi bilan hamkorlik qilish borasida ham zarur vakolatlar berilgan. Ular o'zaro hamkorlikda jinoyatchilikning o'ziga xos va latentligi yuqori bo'lgan sinfi bo'lmish uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va uning profilatikasini amalga oshirishdek murakkab vazifani bajaradi. Uyushgan jinoyatchilikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu ularning jinoiy uyushmalar asosida tashkil topganligi, o'ziga xos xufiyona tarzda faoliyat ko'rsatishi, muqim ravishda mavjud bo'lishi va tezda bir jinoiy faoliyatdan boshqa bir jinoiy faoliyatga moslasha olishidir. E'tiborga olish lozimki, uyushgan jinoyatchilikka kirishning turli xil usullari hamda uyushgan jinoyatchilik bilan shug'ullanadigan guruhlarning har xil turlari mavjud. Jinoyatchining tashkilotga qo'shilish usulidan qat'i nazar, uyushgan jinoyatchilik ixtisoslashuvni yoki maxsus mahoratni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Turkiya, AQSh kabi bir qator rivojlangan davlatlarning qonunchiligidagi aynan uyushgan guruhlari xususida alohida normalar qayd etilmagan bo'lsa-da, xususan, turli jinoiy banda, terroristik tashkilot yoki assotsiatsiyalarda hamda giyohvandlik vositalarini g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish bo'yicha tashkil

etilgan biznes guruhlari tarkibida ishtirok etish, ya’ni ishtirokchilik qilishga nisbatan qat’iy normalar belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif va tavsiyalari ishlab chiqildi:

1. Mamlakatda fuqarolarning oladigan daromadlarini nazorat qilishning aniq mexanizmini yaratish va shu orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida g‘ayriqonuniy daromad olishga yo‘l qo‘ymaslik va bu orqali ularning uyushgan jinoyatchilik yo‘lboshchilari ta’siriga tushib qolmasligining oldini olish.

2. Amaldagi JPKga uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyati va ular sodir etgan jinoyatlarni fosh etish bilan bevosita shug‘ullanuvchi subyektlar hamda bunday toifadagi ishlar bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayoni ishtirokchilarini himoya qilishni ta’minlovchi huquq tizimini shakllantirish.

3. Bugungi kunda uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishda mehnat, fuqarolik, ma’muriy qonunchilikda ularning faoliyat olib borishini va jinoyat sodir etishini qiyinlashtiruvchi, xavf-xatarli bo‘lishini kuchaytiruvchi hamda jinoiy foyda olishni kamaytiruvchi choralarни va ularni amalga oshirish tartibni belgilovchi huquqiy normalar tizimini yaratish ular ustidan samarali ijtimoiy-huquqiy nazorat o‘rnatalishi va uning uzlusiz amalga oshirilishini ta’minlaydi.

**Xulosa** o‘rnida aytish mumkinki, bugungi tezkor axborot zamonida uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy hayotning turli sohalarini o‘z ta’siriga olmoqda, ushbu unsur bilan talab darajasidagi kurashni yo‘lga qo‘ymasdan jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish murakkab kechadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2021 йил 10 сентябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) – Т.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021 й. – Б. 560.
2. Kriminologiya: Darslik / Z.S. Zaripov, A.S. Yakubov, G.A. Avanesov va boshq.; prof. Z.S. Zaripov tahriri ostida. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – Б. 420.
3. Kriminologiya: Darslik / Z.S. Zaripov, Q.R. Abdurasulova, Y.S. Pulatov va boshq.; prof. Z.S. Zaripov tahriri ostida. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – Б. 474.
4. Гуров А.И. Организованная преступность / А.И. Гуров // Криминология: учеб. пособие / Г.И. Богуш, О.Н. Ведерникова, М.Н. Голоднюк [и др.]; науч. ред. Н.Ф. Кузнецова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Проспект, 2012. – С. 73. 5. Долгова А.И. Преступность, ее организованность и криминальное общество / А.И. Долгова. – М.: Рос. криминол. ассоц., 2003. – С. 183..

5. Sottiyev I.A. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy huquqiy choralari: Dissertatsiya. – T., 2001.
6. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: – Dsizertatsiya. – T., 2006.
7. Musayev M. Jinoiy uyushma faoliyatini kvalifikatsiya qilish muammolari // Davlat va huquq. – 2004. – №4. – B. 51.
8. Эшкобилов С. (2022). Оммавий тартибсизликларнинг олдини олишда профилактик чора-тадбирларнинг аҳамияти. Общество и инновации, 3(3/S), 98–105.